
“YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI MAKTABI” MAVZUSIDA YOSHLAR FESTIVALI BO‘LIB O‘TDI

Tuman prokuraturasi hamda tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi hamkorligida tumandagi 12-umumta’lim maktabida “Yangi O‘zbekistonning yangi maktabi” mavzusida yoshlar festivali tashkil etildi.

Ushbu tadbir o‘quvchilar tarbiyasida maktab-oila-mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligini yanada kuchaytirish, o‘quvchilarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy hamda ma’naviy immunitetni shakllantirish, ularda odob-ahloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish, oilalarda farzand tarbiyasi va ularni mustaqil hayotga tayyorlashga bo‘lgan e’tibor va mas’uliyatini kuchaytirish, ularning bo’sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida bo‘lib o‘tdi.

Tadbir davomida milliy hunarmandchilik ko‘rgazmasi, maktabning 11-sinf o‘quvchi-qizlari ishtirokida “Milliy liboslar” ko‘rgazmasi namoyishi, “Orasta qizlar” tanlovi, 10-sinf o‘quvchilari ijrosida “Milliy laparlar”, “Yosh kitobxon o‘quvchi” hamda “Yosh pazanda” ko‘rik-tanlovlari o‘tkazildi.

Tadbir so‘ngida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovining tuman bosqichi g‘oliblariga pul mukofotlari topshirildi.

2024-04-24 17:14:46